**TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2025-yil 16-aprel 105-10-212-Q/25 Toshkent tuman hokimligi

**Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 26-martdagi “Toshkent tumani hududidagi bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 210-10-0-Q/25-son qarorining ijrosi haqida**

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 26-martdagi 210-10-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq, **qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 26-martdagi “Toshkent tumani hududidagi bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 210-10-0-Q/25-son qarori malumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “MMM FAYZ” MChJ rahbari Qodirov Muzaffar Jura o‘g‘lining 2025-yil 24-martdagi 202501870000931-sonli yer maydonini zaxiraga qaytarish to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan arizasiga asosan, Toshkent tumani xaritasining “Turg‘unboy Sohibkor agro” hududi 852, 860, 863-konturlardagi 5,5 gektar;

“MEGA EMPYREAL RENT” MChJ rahbari Qosimov Toir To‘raevichning 2025-yil 24-martdagi 202501870000927-sonli yer maydonini zaxiraga qaytarish to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan arizasiga asosan, Toshkent tumani xaritasining “Turg‘unboy Sohibkor agro” hududi 830, 831, 832, 833, 835, 862-konturlardagi 8,19 gektar;

“Xayrul Farz” MChJ rahbari Qosimov Toir To‘raevichning 2025-yil 24-martdagi 202501870000928-sonli yer maydonini zaxiraga qaytarish to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan arizasiga asosan, Toshkent tumani xaritasining “Turg‘unboy Sohibkor agro” hududi 837, 838, 861-konturlardagi 4,78 gektar, 3 ta yerdan foydalanuvchidan jami 18,47 gektar yer maydoni Toshkent tumani davlat zaxira yerlari tarkibiga qaytarilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Toshkent tumani hokimining o‘rinbosari (A.Oqiljonov) qarorda keltirilgan jami 18,47 gektar yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtma bersin.

4. Davlat kadastrlari palatasi tuman bo‘limi (O.Xoldorov) bo‘sh turgan 18,47 gektar yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari A.Oqiljonov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **S.Ergashev**